

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**  
**5-sinf**  
**I variant**

1-25 matematika, 26-45 ona tili va adabiyot  
(B-bilish; Q-qo‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi F.I.SH).....

**1. (B 1,3 ball)** So‘zlar bilan berilgan sonlarni raqamlar bilan yozing va to‘g‘ri javobni mos keltiring:

1. besh ming uch yuz to‘rt	A. 246
2. ikki yuz qirq olti	B. 2046
3. ikki ming qirq olti	C. 534
	D. 5304

- A) 1 – D; 2 – B; 3 – A.  
B) 1 – D; 2 – A; 3 – B.  
C) 1 – C; 2 – A; 3 – B.  
D) 1 – C; 2 – B; 3 – A.

**2. (B 1,3 ball)** Yulduzcha (\*) o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan raqamlar yig‘indisini toping.

$$564 * 24 > 564345$$

- A) 39 B) 30 C) 38 D) 41

**3. (B 1,3 ball)** Hisoblang:  $607 \cdot 35$

- A) 21235 B) 21255 C) 20245 D) 21245

**4. (B 1,3 ball)** 544 sonining kubi qanday raqam bilan tugaydi?

- A) 2 B) 6 C) 4 D) 8

**5. (Q 1,6 ball)** ABC uchburchakda  $AB = 4$  dm,  $BC = 50$  cm,  $AC = 380$  mm bo‘lsa, uning perimetrini toping.

- A) 128 dm B) 13 dm C) 128 cm D) 1380 mm

6. (Q 1,6 ball) 2340 kg ni tonna, sentner va kilogrammlarda ifodalang. (t-tonna, q-sentner)

A) 2 t 30 q 40 kg B) 2 t 3 q 40 kg C) 2 t 34 q D) 2 t 300 q 40 kg

7. (Q 1,6 ball) 1648 sonini o'nlari xonasigacha yaxlitlanganda a, yuzlar xonasigacha yaxlitlanganda esa b bo'lsin. a – b ning qiymatini toping.

A) 50 B) 48 C) 52 D) a dan b ni ayirib bo'lmaydi

8. (Q 1,6 ball) Hisoblang:  $511 + 245 + 855 + 89$

A) 1700 B) 1850 C) 1800 D) 1750

9. (Q 1,6 ball) ABCD to'rtburchakning perimetri 100 cm. AB tomon 30 cm, BC tomon AB tomondan 5 cm qisqa, lekin CD tomondan 8 cm uzun. AD tomon uzunligini toping.

A) 38 cm B) 13 cm C) 24 cm D) 28 cm

10. (Q 1,6 ball) Duradgor uch kunda buyurtmani bajardi. Birinchi kuni u 12 ta, ikkinchi kuni birinchi kundan a ta ko'p va uchinchi kuni esa ikkinchi kundan 3 ta ko'p stul yasadi. Duradgor uch kunda jami nechta stul yasaganini aniqlovchi harfli ifoda tuzing.

A) 39 B)  $36 + 2a$  C)  $33 + 2a$  D)  $39 + 2a$

11. (Q 1,6 ball)  $(19 - 7b) \cdot (9b - 8)$  ifoda qiymatini  $b = 2$  bo'lganda hisoblang.

A) 100 B) 45 C) 50 D) 75

12. (Q 1,6 ball) Uchta sonning yig'indisi 21011 ga teng. Sonlardan biri eng katta to'rt xonali son, ikkinchisi eng kichik besh xonali son bilan eng katta uch xonali sonlarning yig'indisiga teng. Uchinchi sonni toping.

A) 1003 B) 13 C) 203 D) 17

13. (Q 1,6 ball) Bo'linuvchi 6 marta kamaytirilsa, bo'luvchi 3 marta orttirilsa, bo'linma qanday o'zgaradi?

A) 3 marta kamayadi;

B) 18 marta kamayadi;

C) 2 marta kamayadi;

D) 9 marta kamayadi;

14. (Q 1,6 ball) 3932823 soni 129 sonidan necha marta katta?

A) 30477 B) 3487 C) 30487 D) 31387

15. (Q 1,6 ball) 365 sonini qanday songa bo'lganda, to'liqsiz bo'linma 52 ga qoldiq esa 1 ga teng bo'ladi?

A) 7 B) 9 C) 12 D) 17

16. (Q 1,6 ball) Har bir harfiy ifodani soddalashtiring va har biriga mos javobni toping.

1. $19 + a + 81$	A. $100 - a$
2. $121 - a - 21$	B. $a - 100$
3. $a - 75 - 25$	C. $100 + a$
	D. $a - 50$

- A) 1 – C; 2 – A; 3 – B.  
 B) 1 – C; 2 – B; 3 – D.  
 C) 1 – A; 2 – B; 3 – D.  
 D) 1 – A; 2 – C; 3 – B.

17. (Q 1,6 ball) Tenglamani yeching:

$$8y + 56 + 4y = 212$$

- A) 14 B) 17 C) 23 D) 13

18. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$(3672 - 36 : 4 - 3) \cdot 2$$

- A) 7170 B) 7320 C) 7420 D) 7390

19. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$(790 - 17472 : 84) \cdot 64$$

- A) 37668 B) 33768 C) 37248 D) 34668

20. (Q 1,6 ball) Sayohatchi bir shahardan ikkinchisiga bormoqchi. U oldin avtomobilda 70 km/h tezlik bilan 3 soat yo‘l bosdi. So‘ng piyoda 4 soat 3 km/h tezlik bilan yurdi. Shunda ikkinchi shahargacha yana 2 km yo‘l qoldi. Bu shaharlar orasidagi masofa qancha?

- A) 224 km B) 222 km C) 204 km D) 384 km

21. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$7^2 + 9^2 - 4^3$$

- A) 64 B) 66 C) 86 D) 20

22. (Q 1,6 ball) Sinflararo futbol musobaqasining jadvali berilgan (6-A:6-B → 2:3 kabi):

Sinf	6-A	6-B	6-D	6-E	6-F
6-A		2:3	1:2	0:0	2:1
6-B	3:2		5:0	0:1	4:2
6-D	2:1	0:5		1:1	2:0
6-E	0:0	1:0	1:1		2:2
6-F	1:2	2:4	0:2	2:2	

Qaysi jamoa 7 ochko to‘plagan? (Izoh: g‘alabaga 3 ochko, durangga 1 ochko, mag‘lubiyatga 0 ochko beriladi)

- A) 6-E B) 6-A C) 6-D D) 6-B

**23. (M 2 ball)** A sonni B songa bo'lganda, to'liqsiz bo'linma 2, qoldiq esa 8 ga teng bo'ladi. A sonni C songa bo'lganda, to'liqsiz bo'linma 3, qoldiq esa 5 ga teng bo'ladi. Agar B – bir xonali son bo'lsa,  $A + B + C$  ning qiymatini toping.

A) 32 B) 40 C) 38 D) 42

**24. (M 2 ball)** Ikki xonali son berilgan. Bu ikki xonali sonning chap tomoniga, so'ngra o'ng tomoniga 7 raqami yozilib, ikkita son hosil qilindi. Hosil bo'lgan bu ikkita uch xonali sonlar ayirmasi 351 ga teng bo'ldi. Berilgan ikki xonali son uchun quyidagi mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

1) Bu ikki xonali son 50 dan katta;

2) Bu ikki xonali sonning raqamlari yig'indisi 11 ga teng;

3) Bu ikki xonali sonning raqamlari ko'paytmasi toq son bo'ladi;

A) noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri

B) noto'g'ri, to'g'ri, to'g'ri

C) to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri

D) to'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri

**25. (M 2 ball)** 21 ta bir xil sig'imli idishning 7 tasiga to'ldirib, 7 tasiga yarim qilib asal solingan, 7 tasi esa bo'sh. Uch nafar mijozga asalni va idishlarni teng bo'lib berish kerak. Bunda har bir mijoz teng miqdorda asal va teng miqdorda idish olishi kerak. Mijozlar eng ko'pi bilan nechta yarim qilib asal solingan idishdan olishlari mumkin?

A) 4 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 3 ta

**26. (Bilish 2,5 ball)** Noto'g'ri yozilgan so'zni belgilang.

A) jangovar B) grip C) giyohvand D) afv

**27. (Bilish 2,5 ball)** Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga "o" yoziladi?

1) m..bodo 2) s...mon 3) t..mosha 4) h..ynahoy 5) h..mon 6) s..vob

A) 1,3,4,5 B) 2,3,4 C) 1,2,5,6 D) 1,3,5

**28. (Bilish 2,5 ball)** Ilm – insoniylikning yuksak tojidir. Ushbu gap qanday mustaqil so'z turkumlaridan tashkil topgan?

A) ot, sifat, ravish, ot.

B) ot, sifat, ot, fe'l.

C) ot, sifat, ot, olmosh.

D) ot, ot, sifat, ot

**29. (Qo'llash 4, 5 ball)** Qaysi so'zdagi birinchi undoshni jarangli juftiga almashtirganda yangi so'z hosil bo'lmaydi?

A) bir B) bayt C) band D) sud

**30. (Qo'llash 4, 5 ball)** Qaysi gapdagi so'zda tovush almashinish hodisasi yuz bergan?

A) Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar.

B) Qumloqda saksovul ildizlari chuqurlab ketgan edi.

C) Sanamay sakkiz dema.

D) Dushmanni tag-tugi bilan yo'qotib yubordi.

**31. (Qo'llash 4, 5 ball)** Quyidagi juftliklardan qaysi biri xato izohlangan?

- A) Darz – saboq bermoq, dars – yorilmoq, sinmoq
- B) Ato – in'om, ota – farzandli er kishi
- C) Adl – adolat, adil – tik
- D) Bog' – mevali daraxtlar, boq – qara, o'stir

**32. (Qo'llash 4, 5 ball)** Inson organizmida har bir a'zoning o'rni bor. Ushbu gap haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni toping.

- 1. Ot so'z turkumi ishtirok etgan.
- 2. Sifat so'z turkumi ishtirok etgan.
- 3. Olmosh so'z turkumi ishtirok etgan.
- 4. Tovush almashinish hodisasi kuzatiladi.
- 5. Tovush tushish hodisasi kuzatiladi.

- A) 1,3,5      B) 1,3,4      C) 1,2,4      D) 2,3,4

**33. (Qo'llash 4, 5 ball)** Mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

Mulohaza	To'g'ri	Noto'g'ri
1. Fazilatli, samimiy, kamtar sifatleri salbiy sifatdir.		
2. Boshqa so'zlar o'rnida qo'llanuvchi so'z turkumiga ravish deyiladi.		
3. Tilning tovush tizimini o'rganadigan bo'limi fonetikadir.		
4. Shoh – daraxt shohi Shox – podshoh		
5. Tilimizda beshta ovozdor undosh bor		

- A) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri, 4-noto'g'ri, 5-to'g'ri
- B) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri, 4-to'g'ri, 5-noto'g'ri
- C) 1-noto'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri, 4-noto'g'ri, 5-to'g'ri
- D) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri, 4-noto'g'ri, 5-to'g'ri

**34. (Qo'llash 4, 5 ball)** Tarkibi faqat til undoshlaridan iborat bo'lgan so'zni toping.

- A) bo'linma      B) so'zlar      C) bog'bon      D) afsungar

**35. (Mulohaza 5,5 ball)** Matnni diqqat bilan o'qib chiqing. Matn mazmuniga mos xulosani aniqlang!

### Qalb siri

Dengiz chig'anog'i oyni qattiq sevar edi. Oy chiqqan tunlarda chig'anog'ini ochib, unga soatlab tikilib o'tirar ekan. Shu atrofda yashaydigan ochko'z qisqichbaqa buni sezib qolib, chig'anog'ini yemoqchi bo'lib payt poylabdi. Oy bulutlar orasidan chiqqanda chig'anoq hamma narsani unutib, chig'anog'ini ochib, oyga mahliyo bo'lib o'tiribdi. Qisqichbaqa esa bundan foydalanib bir toshni chig'anoqqa qarab otibdi. Chig'anoq o'ziga kelib, tezda qopqog'ini yopmoqchi bo'libdi, lekin tosh uning yopilishiga xalaqit beribdi...

- A) Go'zallik qalblarni yashnatuvchi ne'mat.
- B) Har narsada aql bilan ish qilish lozim.
- C) So'z gavhardir, gavharni toshga urma.
- D) Qalbdagi his-tuyg'ularingni boshqalardan sir saqla.

**36. (Bilish 2,5 ball)** Ushbu fikr qaysi janr haqida?

Xalq og‘zaki ijodining sevimli, qiziqarli turi, unda inson va uni o‘rab olgan olam o‘xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanadi...

A) afsona      B) topishmoq      C) maqol      D) lof

**37. (Bilish 2,5 ball)** Katta-kichik she‘rlar, she‘riy masallar, ballada va dostonlar bir bo‘lib adabiyotning qaysi turini tashkil etadi?

A) nasr      B) nazm      C) komediya      D) dramaturgiya

**38. (Bilish 2,5 ball)** Xalq og‘zaki ijodi nodir namunalarini aniqlang.

1) hikoya; 2) maqol; 3) ballada; 4) povest; 5) ertak; 6) latifa

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6      B) 1, 2, 3, 5, 6

C) 2, 4, 5, 6      D) 2, 5, 6

**39. (Qo‘llash 4, 5 ball)** “Ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilati” haqidagi hadisda Alloh yuborgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadigan mo‘min kishilar qanday yerga qiyoslangan?

A) Suvni o‘zida tutib qolmaydigan, ko‘katni ham ko‘kartirmaydigan tekis yerga.

B) To‘plangan suvdan o‘ziga ham o‘zgalarga nafi tegmaydigan qatqaloq, qurg‘oq yerga

C) Suvni emmasdan, o‘zida to‘playdigan, o‘zi manfaat ko‘rmaydigan ammo boshqalar manfaatlanadigan qattiq yerga.

D) Yomg‘irni o‘ziga singdiradigan, har xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradigan unumdor yerga.

**40. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Ayrim odamlarga nisbatan donolar: “Ko‘rpangga qarab oyoq uzatgin”, – deya tanbeh beradilar. Ushbu tanbeh xulosa bo‘la oladigan Ezop masalini aniqlang.

A) Eshak bilan baqalar

B) Bo‘ri bilan laylak

C) Burgut, zag‘cha va cho‘pon

D) Ustiga tuz ortilgan eshak

**41. (Qo‘llash 4, 5 ball)** “Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi aka-ukalar nega podshohning saroyda yashash haqidagi taklifiga rozi bo‘lishmaydi?

A) Ular kasb-hunarlarini ketidan kelgan mehnat rohatini ko‘rib yashashni xohlaganlari sabab podshohning taklifini qabul qilishmaydi.

B) Ular yolg‘iz qolgan otalarini hamda bolaligi o‘tgan uy-joylarini tashlab ketolmasliklarini sabab qilib ko‘rsatib, podshohning taklifini rad etishadi.

C) Ular vazir kabi hasadgo‘y odamlar bilan bir saroyda istiqomat qilishni xohlamasliklarini sabab qilib ko‘rsatib, podshohning taklifini qabul qilishmaydi.

D) Ular erkin yashab, ov bilan shug‘ullanib kun kechirishni ma‘qul ko‘rishlarini sabab qilib, podshoh taklifini rad etishadi.

**42. (Qo‘llash 4, 5 ball)** “Oygul bilan Baxtiyor” ertagi avvalida kambag‘al va nochor deya ta‘riflangan bo‘lsa-da, voqealar rivojida o‘zgarib nafaqat o‘zining, balki xalqning erk uchun harakatiga rahnamolik qilgan obrazni aniqlang.

A) Baxtiyor ertak voqealari rivojida o‘zgarib borgan obraz.

B) Oygulning otasi dastlab “sho‘rpeshona” deya ta‘riflanib, ertak voqealar rivojida o‘zgargan.

C) Chol obrazi dastlab “sho‘rpeshona” deya ta‘riflanib, ertak voqealar rivojida o‘zgargan.

D) Oygul obrazi ertak voqealari rivojida o‘zgarib borgan.

**43. (Qo‘llash 4, 5 ball)** “Botir tikuvchi” ertagiga xos bo‘lmagan fikr keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Ertak qahramoni o‘ziga yangi kamar bichib, katta-katta harflar bilan unga: “Chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon!” deb yozib qo‘yadi.

B) Ertakda ulkan odam tikuvchi bilan bahslashib, toshni shunday qattiq qisadiki, toshdan suv chiqib ketadi.

C) Ertakda tikuvchi barcha-barcha narsalarni teskari qilib ko‘rsatadigan oynalari bor shaharchaga tushib qoladi.

D) Ertakda qirol tikuvchini changalzor o‘rmondagi ikki qaroqchini mag‘lub qilish uchun yuboradi.

**44. (Qo‘llash 4, 5 ball)** Hamid Olimjondagi tug‘ma iste‘dodning namoyon bo‘lishi uchun asosiy sabab bo‘lgan holat keltirilgan javobni aniqlang.

A) Bobosi Azim boboning ko‘magi bilan ilk she‘ri gazeta sahifalarida chop etilishi.

B) Onasi Komila ayaning ko‘plab ertaklarni yoddan bilishi va ularni so‘zlab bergandan so‘ng yosh Abdulhamidning tasavvur olami kengayishi.

C) Jizzaxdagi baxshilarning suhbatidan bahramand bo‘lganligi, ular ijrosidagi doston qahramonlari uning tasavvur olamini kengaytirgani.

D) Olis bolaligida buvisi va bobosining xira chiroq yorug‘ida, “uyqusiz kechalarda” ko‘plab ertaklarni so‘zlab bergani.

**45. (Mulohaza 5,5 ball)** Ezopning “Ustiga tuz ortilgan eshak” masalining xulosasi to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

A) Ayrim kishilar kichkinagina qiyinchilik oldida ham esankirab, ruhan cho‘kib qoladilar, holbuki, boshqalar bundan o‘n chandon mashaqqatlarni sabr ila yengadilar. “Birni ko‘rib shukur qil, birni ko‘rib fikr qil” maqoli ushbu masalning xulosasi bo‘la oladi.

B) Ayrim badfe‘l insonlar yomonlik qilmaganlarining o‘ziniyoq yaxshilik qilganga yo‘yadilar. Manmanlik qilib o‘zlaridan kuchsizlarni mensimaydilar.

C) Kimki o‘ziga yaxshilik qilganlarga yomonlik sog‘insa, u, albatta, jazosiz qolmaydi. Har bir qilingan yomonlik uchun esa jazo muqarrar.

D) “Og‘irning ostidan, yengilning ustidan o‘tma”, – deydi dono xalqimiz. Ayrim ishyoqmas, havoyi kishilar maqsadlariga tez va oson yetishish uchun turli hiylanayrang topadilar-u, ammo kutilmaganda pand yeb qoladilar.



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO  
BAHOLASH ILMIY-AMALIY  
**MARKAZI**